

LIFELONG LEARNING

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC THEORETICAL AND METHODOLOGICAL JOURNAL



2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



**“LIFELONG LEARNING”
ILMIY-NAZARIY VA METODIK
JURNAL**

**“ LIFELONG LEARNING”
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ
ЖУРНАЛ**

**“LIFELONG LEARNING”
SCIENTIFIC-THEORETICAL AND
METHODOLOGICAL
JOURNAL**

№ 3, 2025

“MAJOLIS UN-NAFOIS “ASARIDA GERMENEVTIK UNSURLARNING KUZATILISHI



Saidova Nodira Mustakimovna, (PhD)
saidova@mail.ru

Annotatsiya: Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida badiiy matnning tahlil va talqiniga o‘ziga xos tarzda yondashiladi. Maqolada badiiy matnning tahliliga qaratilgan hermenevtik yondashuvning shakllanish omillari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, hermenevtika, tahlil, talqin, sharh, badiiyat, g‘oya,

Аннотация: В “Маджолис ун-наfois” Алишера Навои к анализу и интерпретации художественного текста используется особый подход. В статье рассматриваются факторы формирования герменевтического подхода к анализу художественного текста.

Ключевые слова: художественный текст, герменевтика, анализ, интерпретация, комментарий, искусство, идея

Observation of hermeneutical elements in "Majolis un-nafois"

Abstract: Alisher Navoi's "Majolis un-Nafois" uses a special approach to the analysis and interpretation of a literary text. The article examines the factors of the formation of a hermeneutical approach to the analysis of a literary text.

Keywords: artistic text, hermeneutics, analysis, interpretation, commentary, art, idea

Kirish qismi. Jahon adabiyotshunosligida, jumladan, o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarni tahlil va talqin qilishda yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi badiiy matnni har tomonlama anglashga ko‘maklashuvchi ijobiy hodisa sanaladi. Zero, tahlil va talqinlar-badiiy asar bahosini belgilashdagi bosh mezon sanaladi.¹

Badiiy matn tahlilida keng qo‘llanuvchi usullardan biri hermenevtikadir. Bu usul badiiy matnni tushunish va talqin qilishning nazariy masalalarini o‘rganadi. Hermenevtika” (grekcha hermeneutike) - “o‘rganish, sharhlash” degan ma’noni bildiradi. Ta’kidlash kerakki, bu atama mumtoz adabiyotshunosligimizda “sharh”, “tafsir” atamalari bilan berilgan.

Sharq adabiyotida aytilmoqchi bo‘lgan fikr va qarashlarni ramz va majoz orqali ifodalash an’ana tusini olgan. Shuning uchun bunday asarlarning mohiyatini anglash, o‘z davri kitobxonlariga yetkazib berish, muallif badiiy mahoratiga baho

¹ Nazarov B, Rasulov.A, Qahramonova Q, Axmedova Sh., O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. - Toshkent. - 2012//Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. B-341.

berishda sharh ilmiga murojaat qilingan. Bu ilm tarixi uzoq tarixiy davrni bosib o'tib, bu sohada ma'lum bir tajribalar to'plana borgan. Natijada sharhning buyuk ijodkorlari Jaloliddin Rumiy, Xo'ja Hofiz, Mirzo Bedil asarlariga yozilgan sharhlar fikrimizni tasdiqlaydi. Sharh yozish an'anasi bilan bog'liq ma'lumotlar mumtoz manbalar va tazkira asarlarda ham qayd qilingan.

Sulton Sanjar zamonida yashagan Avhadiddin Anvariylar ulkan qasidanavis bo'lgan. She'rlari zo'r badiiy mahorat bilan yozilgan, tili birmuncha og'ir va teran ma'nolidir. Shu bois, Abulhasan Farraxoniy Anvariylar devonini sharhlash uchun turli fanlarga oid 60 ta ilmiy kitob yozgan².

Xoja Ahror Valiy tarixini tadqiq qilgan adabiyotshunos olim uning "Risolayi havroiya" asari mashhur shoir Abu Sa'id Abulxayrni bir ruboiysi sharhiga bag'ishlanganligini ta'kidlaydi. Olimning qayd etishicha, oriflar sultoni sifatida musulmon Sharqida dong taratgan Shayx Abusaid Abulxayr Mehnaviyning bir ruboiysi ilmu adab va tasavvuf ahli o'rtasida shunchalik shuhrat tutganki, birgina Sayyid Ne'matullo Valiy uning sharhiga 3 ta risola bag'ishlagan. Qosim Anvor, Shayx Ozariy, Ya'qub Charxiy va Xoja Ahror Valiylar ham uni sharhlab risolalar bitganlar.³ Bunday ma'lumotni "Muzakkiri ahhob" tazkirasining "Olimlar rahnomasi mavlono Ibrohimning muqaddas yodi" nomli faslida ham o'qishimiz mumkin: "O'ta darajada ilmi olimlardan edi. Ko'pgina ilm sohalar bo'yicha yaxshi tasniflari bor. Ayniqsa, g'ariba fanida iqtidori kuchli edi. Insho yozganda ko'p ma'nolarni mu'jaz va lo'nda kalomda bayon etib, siqiq hajm mazmunida katta va ko'p fikrlarni anglatardi. Hazrat Ubaydulloxon peshindan keyin arabiy tilda bir ruboiy aytib yuborgan ekan, mullo esa namozshomgacha dovur vaqt ichida shu ruboiy xususida bir arabcha risola tasnif qilishga ulgurganlar. Mazkur ruboiyning har bir misrasi bobida olti yuz ellik ma'no aytganlar."⁴

Tadqiqot obyekti. Ma'lumki, biror-bir shoir she'rlariga sharh yozish borasida arab va fors-tojik adabiyotshunosligida ma'lum bir tajribalar mavjud edi. Jumladan, Hofiz, Rumiy asarlariga yozilgan sharhlar. Ammo bu tajriba turkiy-o'zbek tilidagi adabiyotshunoslikda Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda ko'zga tashlanmaydi.⁵ Biroq Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" ning Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sakkizinchi majlisini kuzatsak, unda muallifning shoir g'azallariga tahlil va talqinlari o'ziga xos shaklda berib o'tiladi. Bu bilan Navoiy turkiy adabiyotdagi kemtiklikni to'ldirishi bilan birga tazkirachilik an'anasini boyitdi hamda sharh yozish an'anasiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi tahlillarni o'z tazkirasida berib o'tadi.

Ulug' shoir asarning sakkinchi majlisida Husayn Boyqaroga she'riyatidan namunalar keltirar ekan, ularga yozilgan o'z sharhlarini ham joylashtiradi.

² Е. Бертельс, История персидско-таджикской поэзии, М., 1960.

³ Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент: "Ёзувчи", 1994. 75-бет.

⁴ Қаранг: Ҳасанхожа Нисорий. "Музаққирӣ аҳбоб" (И.Бекжон таржимаси). – Тошкент: "Халқ мероси. 1993. 172-бет.

⁵ Botirxon Valixojayev. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). To'rtinchi qism. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-4.html>

Jumladan, Husayn Boyqaroning Mavlono Lutfiy gʻazaliga yozgan javobiyasiga munosabat bildirib shunday yozadi:

“Malik ul-kalom Mavlono Lutfiyning mashhur matlai javobida debtur:

Ey qading tubiyu jannat xaddi gulgun ustina.

Bu matlaʼ voqeʼ boʻlubturkim:

Xattining tori tushubtur laʼli maygun ustina,

Uylakim, jon rishtasi bir qatrai xun ustina.

Basirat ahli qoshida zohirdurkim, tafovut ne chogʻlikdur. Ne uchunkim, Mavlono yuzni jannatqa nisbat qilubdur va bu munosib tashbehdur. Bovujudi bu ikki misra bir-biriga marbut emas va javobi bovujudi gʻarobati maʼni ikkalasi bir-biriga muvofiq va alfozi bir-birining muqobalasida loyiq voqeʼ boʻlubtur. Va qofiyaga tagʻyir berib ham ushbu radif bila yana uch gʻazal deyilibtur.⁶

Lirik asar bu oniy his – tuygʻuning badiiy ifodasi ekan, uning taʼsirchanligini taʼminlagan omillardan biri tasviriy vositalar sanaladi. Ijod va ijodkorlik oldiga yuqori talablarni qoʻygan Alisher Navoiy lirik asar tahlilida uning badiiyati, unda qoʻllanilgan badiiy - tasviriy vositalar, ichki va tashqi jozibadorligini taʼminlagan muhim omillar, gʻoyani qay tarzda aks ettira olganligiga ham diqqat qaratadi. “Asarning tarbiyaviy va maʼrifiy motivi uning maʼnosini (mazmunini), badiiy jihati esa, suvratini (shaklini) tashkil qiladi. Surat-tashqi koʻrinish, maʼno-mohiyat, asos. Asarning barcha adabiy vositalari, til va uslubi asarning suvratini tashkil etadi. Fikr esa maʼnodir”⁵.

“Majolis un -nafois”dan keltirilgan iqtibosda Alisher Navoiy Lutfiy baytida qoʻllanilgan tashbehning (maʼshuqa yuzini jannatga oʻxshatilishi) oʻrinli va munosib ekanligini taʼkidlaydi. Shoir bu oʻrinda qoʻllanilgan tasviriy vositaning inson tafakkuridagi badiiy inʼikosiga eʼtibor qaratadi. Yaʼni tasviriy vosita oʻquvchi koʻz oʻngida gavdalanmasa, hayot haqiqatiga mos kelmasa kitobxon undan estetik zavq ololmaydi. Shu misraga javobiya tarzida aytilgan Husayniy javobi “bovujudi gʻarobati maʼni (maʼnoning goʻzal va nodir boʻlishi bilan birga) ikkalasi (baytning ikki misrasi) bir-biriga loyiq voqeʼ boʻlganligi”ni taʼkidlaydi, biroq ikki muallifning misralari “bovujudi bu ikki misraʼ bir-biriga marbut (muvofiq) emas” deydi.

Navoy “Majolis un -nafosi”da Husayn Boyqaro gʻazallari sharhida bir necha masalalarga urgʻu berganligini koʻrishimiz mumkin. Jumladan,

1. Shoir gʻazallarida qofiya va radifning “bagʻoyat shirin va rangin” qoʻllanganligi bilan bogʻliq taʼkidlari:

“Bu qofiya va radif ham ul hazratning xossai tabʼidur va hech yerda eshitilmaydur va bagʻoyat shirin va rangin tushubtur. Hajr shomi suubatida oʻzini anjum va aflok bila mashgʻul tutar kayfiyatida bu gʻazal boshtin oyoq xub va puroshub voqeʼ boʻlubturkim:

Hajr shomi oy chiqib men yigʻlar erdim dard ila,

Sayrlar qildim seni istab mahi shabgard ila”

2. Husayniy gʻazallarining kompozitsion tuzilishi xususidagi qarashlari:

⁶ Навоий. Мажолис ун-нафоис.192-бет

⁵ Рустамов А. Шу асар. 35-бет.

“Bovujudi o‘z ishq o‘ti va yor husni o‘ti riqqati qalb va tarahhum jihatidinkim, ishq ahli lozimasidur yana bir mazlumi zor ishqining o‘ti bila ham ko‘nmak va matla’din **she’rning oxirig‘acha bu ma’nini har baytda** izhor qilibdurkim, nazm elidin hech kinga dast bermaydur:

Bas emas erdi manga ham o‘z o‘tum, ham yor o‘ti

Kim, anga afzun dag‘i bo‘lmish yana bir zor o‘ti»

3. Tasviriy vositalarning g‘azaldagi badiiy vazifasi to‘g‘risidagi ta’kidlari:

“Nargis ko‘zluk va g‘uncha og‘izlig‘ guluzori ko‘zu og‘zin nargis bila g‘unchag‘a tarjeh qilg‘oni ajib nav’ voqe’ bo‘lubtur:

Nargis olmas yerdin ul fatton kuzung olida ko‘z,

Og‘zing olida tutulmish g‘unchaning og‘zida so‘z”

She’riy san’atda “tarjeh” bir narsani yoxud biror obrazni boshqa narsa yo obrazdan baland qo‘yib ta’riflashni anglatadi. Bu baytda shoir o‘z sevgilisi ko‘zlarini nargis gulidan, og‘zini g‘unchadan afzal deb ta’riflaydi.

Alisher Navoiy, bundan tashqari, asarda Husayn Boyqaroning tajohuli orif, tarje’, talmeh, mubolag‘a san’atlarini mahorat bilan qo‘llaganligini dalillovchi baytlarni ham keltiradi.

4. Husayniy she’rlarining mavzular olamining rang-barangligi bilan bog‘liq qaydlar:

A) Navoiy shoir g‘azalarida ishq mavzusining yetakchilik qilishini qayd qiladi:

“Ishqdin jahon ichra, afg‘onidin kalom va ko‘yu-ko‘chada bu dostonidin payom:

Vahki, ishqingdin jahon ichra fig‘onimdur mening,

Barcha ko‘yu-ko‘chada ham dostonimdur mening.”

B) G‘azallarda pand-nasihat g‘oyasining ifodasi masalasiga e’tibor qaratadi:

Oshiqona kinoyat bila husn ahlig‘a elni shaydo qilur ma’nida **nasihat qilibdur** va olamg‘a rasvo qilur ma’nida **mav’izat etibdur**, base g‘aribdur:

Ba’dazin, ey husn ahli, elni shaydo qilmangiz,

Bevafoliq aylabon olamg‘a rasvo qilmangiz”

5. Husayniy g‘azallarida hasbi holning badiiy ifodasi masalasi:

“Bu matla’ dag‘i o‘z holi sharhidakim, anvo‘i baliyat bir ishq jihatidin bir-birining ustida bo‘lmish bo‘lg‘an. Bu matla’ yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Yo‘q damekim, telbalardek ul parig‘a zor eman,

Sabru hushumdin judo, dardu balog‘a yor eman”

6. Husayn Boyqaroning g‘azalchilikdagi ixtirolarini ta’kidlaydi:

“Bu qofiya va radif hazrat Sulton Sohibqironning ixtiroidurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:

Ohkim, hijron o‘tidin kuydi jonim o‘zga nav’,

O‘rtadi ofoqni o‘tluq fig‘onim o‘zga nav’”.

7. Navoiyning Husayniy g‘azallari tahlilida ob’ektiv baho berishida, hatto, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishi bilan bog‘liq fikrlarni keltirib o‘tadi:

“Bu faqirning bir g‘azaliga bu g‘azal javob voqe’ o‘lubturkim, o‘zum insof yuzidin mu’tarifmankim, andin yuz martaba ortuqroq tushubturkim:

Tushgali hajringda, ey sarvi gulandomim mening,

Ne ko‘zumda uyqu bor, ne jonda oromim mening”

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida sharq adabiyotida sharh yozishi tarixiga oid ba’zi bir ma’lumotlarni keltirilib o‘tadiki, bugun adabiyotshunoslimizda shakllangan germeneytika masalalari uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgaligidan dalolat beradi. Jumladan, Mavlono Husayniy Xorazmiy haqida fikr yuritgan Alisher Navoiy shunday yozadi: Va Mavlono Jaloliddin Rumiy (quddisa sirruhu) masnaviysig‘a sharh bitibdur va “Qasidai burda” g‘a ham xorazmiycha turkiy til bilan sharh bitibdur”. Yoki Mavlono Sharofiddin Ali Yazdiyga bag‘ishlangan fasldagi “Va alar musannafotidin ulcha mashhurdur: “Qasidai Burda” sharhi va “Asmoullah” sharhi va “Zafarnoma” tarixidur va muammo fanini alar tadvin qildilar”. Keltirilgan iqtiboslardagi ma’lumotlarning sharhnavislik tarixidagi qimmat shundaki, unda bir asarga turli kishilar tomonidan murojaat qilinganligi o‘sha asarning o‘z davrida mashhurligidan dalolat bergan. Yuqoridagi iqtibosda “Qasidayi burda”ning ikki muallif tomonidan sharh qilinganligi Navoiy tomonidan ta’kidlanadi. “Qasidayi burda” arab shoiri Ka’ba Ibni Zuxayr (VII asr) qalamiga mansub asar. Bu asarga juda ko‘plab sharhlar bitilgan. Asar nomidagi “burda” so‘zi “yo‘l-yo‘l matodan tikilgan ustki kiyim” ma’nosini anglatgan. Rivoyatlarda ta’kidlanishicha, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) shol bo‘lgan bemorning ustiga o‘z burdalarini tashlaganda u darddan forig‘ bo‘lgan ekan. Demak, qasidaning yaratilishi bevosita mana shu rivoyatga asoslanilgan. Arabshunos olim I.M. Filshtinskiyning ta’kidlashicha, musulmonlar qasidaning ayrim parchalarini o‘zlari bilan tumor qilib olib yurganlar.

Alisher Navoiy Sharofiddin Ali Yazdiy tomonidan sharhlangan “Asmoullah” asari Shayx Muhammad Tobodgoniy qalamiga mansub bo‘lib, unda Allohning 99 muborak ismi va ularni zikr etishning fazilatlar haqidagi fikr yuritiladi. Mazkur asarga ham islom mintaqada adabiyotida juda ko‘plab sharhlar yozilgan. Ko‘rinib turibdiki, Sharqda sharh yozish an’anasi bevosita islomiy mavzular va islomiy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa. Navoiyning “Majolis un -nafois” asarida Husayn Boyqaro lirik merosiga oid qarashlarini hamda sharhlar asosida yaratilgan asarlarga oid ma’lumotlarni tizimlashtirsak, mumtoz adabiyoda sharh yozish va undan ko‘zlangan maqsad oydinlashadi. Jumladan:

- Lirik asarlar sharhida shakliy unsurlari (qofiya va radif)ga e’tibor qaratish;
- G‘azallarning kompozison tuzilishini nazarda tutish;
- Tasviriy vositalarni qo‘llashda mahorat masalasiga diqqat qaratish;
- Tahlil jarayonida muallifning rang-barang mavzularga murojaat qilishidagi mahorati masalasi;
- Lirik asarlarda shoir “men”ligining ifodasi hamda tarjimayi holi bilan bog‘liq chizgilarning badiiy talqini masalasini tadqiq qilish;

- Muallifning o‘z davri she’riyatida tutgan o‘rni va u olib kirgan badiiy kashfiyotlarga xolisona munosabatda bo‘lish;

- Tahlil va talqinning ob’ektivligini ta’minlashda tanqidiy munosabatning bo‘lishi va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, arab, fors-tojik adabiyotida shakllangan sharh yozish, lirik asarlarga oid turli tahlil va talqinlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq an’analar Alisher Navoiy tomonidan o‘ziga xos shaklda targ‘ib qilindi. Bu esa o‘z davrida turkiy adabiyotni targ‘ib qilishning bir ko‘rinishi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Nazarov B, Rasulov.A, Qahramonova Q, Axmedova Sh., O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. - Toshkent. -2012//Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. B-341.

2.E. Bertels, Istoriya persidsko-tadjikskoy poezii, M., 1960.

3. Valixo‘jaev B. Xoja Ahror tarixi. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1994. 75-bet.

4. Hasanxoja Nisoriy. “Muzakkiri ahbob” (I.Bekjon tarjimasi). – Toshkent: “Xalq merosi. 1993. 172-bet.

5.Botirxon Valixo‘jayev. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi).To‘rtinchi qism. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-.html>.

6.Navoiy. Majolis un-nafois.192-bet

7. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.

МЕТОДЫ И СТРАТЕГИИ АКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ПРИ ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ.



Шарапова Нигора Амоновна –
ассистент кафедры “Информационно-коммуникационных технологий”

Бухарского государственного технического университета.

nigora.sharapova.

1975@mail.ru Тел.:(+99890)718-33-83.

Аннотация. В статье анализируются материалы как зарубежных, так и отечественных практик реализации дистанционных форм обучения, включая как теоретически обоснованные разработки, так и альтернативные исследования, по которым отсутствует единое мнение среди экспертов. Дается обоснование термина «дистанционное обучение», который рассматривается как способ организации образовательного процесса через использование информационно-коммуникационных сетей, при котором происходит взаимодействие между обучающимися и преподавателем. В

MUNDARIJA

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MAKTAB TA'LIMI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	4
<i>Dilova Nargiza Gaybullayevna</i>	
ELEKTRODINAMIKANI O'QITISHNING UMUMIY MASALALALARI	11
<i>Abdullayev J.M, Azzamova.N.B</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMIDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.....	16
<i>Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi-</i>	
O'ZBEK TOPONIMIKASIDA JONDOR TOPONIMLARINING UMUMIY TADQIQI MASALASI	21
<i>Narzilloeva Manzura Shuxrat qizi</i>	
TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI VIRTUAL TA'LIM MUHITIDA O'QITISHNING ISTIQBOLLARI	25
<i>Mirzoyeva Sayyora Sidiq qizi-</i>	
BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARNI INNOVATION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI	31
<i>Avezova Madina G'ulomjonovna</i>	
"KASHTA TURLARI VA ULARNI TIKISHNI O'RGATISH" MAVZUSINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI.	36
<i>Mardonova Feruza Boboqulovna , Boboyeva Dilaferuz Ibodovna</i>	
EKOLOGIK TARBIYA VA EKOLOGIK IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: TALABALARDA IJTIMOIIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH	38
<i>Egamova Gulnoza Istam qizi</i>	
JAMOAVIIY SPORT TURLARIDA SPORTCHILARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONLARI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	44
<i>Saidov G'olibjon Komilovich</i>	
"MAJOLIS UN-NAFOIS "ASARIDA GERMENEVTIK UNSURLARNING KUZATILISHI.....	51
<i>Saidova Nodira Mustakimovna</i>	
МЕТОДЫ И СТРАТЕГИИ АКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ПРИ ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ. ..	56
<i>Шарапова Нигора Амоновна</i>	

5-6 YOSHLI BOLALARDA AKROBATIK MASHQLARNI O‘RGATISHNING BOSQICHLARI VA SAMARALI USULLARI.....	63
--	-----------

Qo‘shmurodova Jasmin Olimovna

TA’LIM KLASTERI ASOSIDA PEDAGOGIK JARAYON MEXANIZMLARI SAMARDORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	66
--	-----------

Samadova Mahbuba Nutfullo qizi

6-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING SHAKL VA USULLARI.....	74
--	-----------

G‘aniyeva M.H

OILADA 3-4 YOSHLI BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINING MAZMUNI	77
--	-----------

Jabborova Saodat Zoirovna

THE HUMAN CONDITION AND EXISTENTIALISM IN STELLA MARIS BY CORMAC MCCARTHY: THE SEARCH FOR MEANING	82
--	-----------

Radjabova Madina Rahim qizi

ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA MODULLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	86
---	-----------

Xaitova Shaxnoza G‘olibjon qizi

LINGUOCREATIVE GAMES FOR SCHOOL STUDENTS: ENHANCING LANGUAGE LEARNING THROUGH PLAY.....	89
--	-----------

Amonov Sunatillo

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ ПЕРВОГО КУРСА К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ	98
--	-----------

Е.Н. Тулайкина

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA IT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	102
--	------------

Xusanova Marjona Usmon qizi, Jumayeva Dilnoza Baxshullayevna

RAHBAR PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	107
--	------------

Nuriddinxo‘jayeva Malikaxon Abror qizi

AKADEMIK MOBILLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATINI SWOT TAHLIL INTERFAOL METODI YORDAMIDA TAHLIL ETISH	114
--	------------

Ruziyeva Shoxida

“LIFELONG LEARNING” ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

№ 3, 2025

Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri, Ibroxim Mo‘minov ko‘chasi, uy:28/2 xonadon:22

Telegram raqami: +998 (97) 736-20-11